1-BO‘LIM.
TARBIYA NAZARIYASI

PREZIDENT MUROJAATI – PROAKTIV IJTIMOIY PEDAGOGIKANING METODOLOGIKASOSI

Muhammadjon Quronov
pedagogika fanlari doktori, professor,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti direktori o‘rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ilgari surilgan g‘oyalar ijtimoiy pedagogikaning metodologik va konseptual mezonlari sifatida ilmiy tahlil qilingan. 2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan mahalla instituti, jamiyat hamda yuksalish tushunchalarining ma’naviy-pedagogik mohiyati va sabab-oqibat zanjiri ochib berilgan. Muallif taraqqiyotni mahalladan boshlash, yoshlarda murakkab davr sinovlariga chidamlilik va vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirish, uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimini proaktiv tamoyillar asosida modernizatsiya qilish masalalarini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Murojaatnoma, proaktiv ijtimoiy pedagogika, mahalla, jamiyatni yuksaltirish, ma’naviy tarbiya, mafkuraviy immunitet.

Аннотация: В данной статье представлен научный анализ идей, выдвинутых в Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису, как методологических и концептуальных критериев социальной педагогики. В связи с объявлением 2026 года «Годом развития махалли и развития общества» раскрыта духовно-педагогическая сущность и причинно-следственная цепочка понятий «институт махалли», «общество» и «развитие». Автор научно обосновывает вопросы начала развития махалли, формирования у молодежи устойчивости к испытаниям сложного периода и патриотических компетенций, модернизации системы непрерывного духовного воспитания на основе проактивных принципов.

Ключевые слова: Обращение, проактивная социальная педагогика, махалля, развитие общества, духовное воспитание, идеологический иммунитет.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the ideas put forward in the Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis as methodological and conceptual criteria for social pedagogy. In connection with the declaration of 2026 as the “Year of Mahalla Development and Enhancement of Society”, the spiritual and pedagogical essence and cause-and-effect chain of the concepts of the mahalla institution, society, and development are revealed. The author scientifically substantiates the issues of starting development from the mahalla, forming resilience to the trials of a difficult period and patriotic competencies in young people, and modernizing the system of continuous spiritual education based on proactive principles.

Keywords: Address, proactive social pedagogy, mahalla, enhancing society, spiritual education, ideological immunity.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi mamlakatimiz bosib o‘tgan yo‘l, bugungi natijalar va ertangi marralarni xalq bilan birga muhokama qilishga qaratilgan samimiy muloqot bo‘ldi. Murojaatnomada xalqimizni quvontirgan yangi tashabbuslar, xulosalar, erishilgan natijalar yangi g‘oya va tashabbuslarning ko‘lami, hajmi, muddati, shiddati xalqimizning zavqiga zavq qo‘shdi. Qolaversa, bu natija, tashabbus va yangiliklar mazmun-mohiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongi va qalbiga joylash har bir ziyolining muhim vazifasidir.

2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilinishi xalqchil siyosatning ijtimoiy pedagogik talqini bo‘ldi. Tahlil qilsak, bu nom Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining chuqur ijtimoiy-pedagogik mohiyatini ochib beruvchi konseptual kod, mexanizm ekanligini ko‘ramiz.

Mahalla so‘zi arab tilidagi "mahal" – joy, maskan, turargoh degani. Bu so‘z odamlar yashaydigan joy, qo‘ni-qo‘shnichilik asosida shakllangan jamoa, o‘zaro tanish, qadrdon odamlarning o‘zaro mas’uliyat va birdamlik, ijtimoiy pedagogik makoni, degan ma’nolarni beradi. Qisqasi, mahalla bu – jamiyatning ma’naviy-ijtimoiy hujayrasi. Demak, rivojlanish va yuksalish hujayralardan boshlanadi.

Rivoj so‘zida ("ravaja") – o‘sish, kengayish, mukammallashish, degan ma’nolar bor. Rivojlantirish esa: mahallalardagi barcha salohiyatni ochish, sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, tizimli va barqaror takomillashuv, degani. Bu yerda gap mahallaning faqat infratuzilmasida emas. Gap mahalladoshlarning ijtimoiy pedagogik faolligi, ijtimoiy pedagogik imkoniyatlari, ma’naviy tarbiyaviy muhitini rivojlantirish haqida ketmoqda.

Jamiyat so‘zi "jam" – yig‘ish, birlashtirish, degan ma’nolarni bera-

di. Jamiyat – bu odamlar, elimiz, xalqimiz. “Jamiyat” so‘zining maqomi “aholi” so‘zidan baland. Aholi bu odamlarning statistik yig‘indisi, deb qarasak, jamiyat bu – umumiy maqsad, qadriyat va mas’uliyat atrofida birlashgan ahil odamlar uyushmasi. Shu bois jamiyatning kuchli yoki zaifligi uning hujayralari – mahallalarga, mahallalarning ijtimoiy pedagogik qudratiga bevosita bog‘liq.

Yuksalish bu o‘sish, lekin oddiy o‘sish emas. Bu: ruhiy, ma’naviy, ijtimoiy-iqtisodiy kamolot sari, yuqoriga ko‘tarilish demak. “Jamiyatni yuksaltirish” deganda: inson qadri ustuvor bo‘lgan muhit, adolat, qonun ustuvorligi, faol fuqarolik pozitsiyasini, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash nazarda tutiladi. Demak, jamiyatning yuksalishi odamlarning bilim, fe’li, kompetensiyalari, aqli va xulqidagi o‘zgarishlardan boshlanadi.

Hazrat Alisher Navoiyning “Aql ila olam yuzin obod qil, Xulq ila odam elini shod qil”, degan hikmati 500 yildan so‘ng davlatimiz siyosatining tamoyiliga aylanib turibdi.

“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” degan nomda ijtimoiy-pedagogik sabab-oqibat zanjiri juda aniq ko‘rinib turadi. Ya’ni, agar mahallada tarbiya rivojlansa, jamiyat jipslashadi, jamiyat jipslashsa, Yangi O‘zbekiston barpo bo‘ladi.

Buning uchun davlatimiz siyosati shunday strategik tamoyilni ilgari surmoqda: islohotlar yuqoridan pastga emas, balki pastdan yuqoriga – mahalladan jamiyatga qarab amalga oshiriladi. Ya’ni Yangi O‘zbekiston – poytaxtda emas, quyidan – mahalladan boshlanadi; taraqqiyot deganda faqat iqtisodni emas, ma’naviy yuksalishni, kuchli iqtisodiyotga barobar kuchli ma’naviyatni tushunishimiz kerak. Chunki jamiyatni yuksaltirish – faqat davlatning ishi emas, umummilliy mas’uliyat. Mana shu umummilliy mas’uliyatni tarbiya va targ‘ibot orqali qanchalik tez va soz, natijali amalga oshirsak, mahalla rivojlanadi, mahalla rivojlansa – jamiyat yuksaladi. Ko‘zlarimiz 2030-yilda yangi O‘zbekiston qiyofasini ko‘radi. O‘zbekiston ijtimoiy pedagogika fani ana shu qiyofani ifodalashi va aholi, yoshlarga ana shu qiyofa-istiqbolga intilish g‘ayratini singdirishi kerak.

Murojaatnoma davomida aholiga milliy birlik, hamjihatlik, Vatan manfaati g‘oyalarini singdirish maqsadi belgilab berildi. Barchani birlashtiradigan yagona maqsad – xalq va Vatan manfaati ekani alohida urg‘u bilan aytildi. Bu esa ijtimoiy pedagogikaga asoslansa, albatta jamiyatni birlashtiradi. Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti o‘tkazgan ijtimoiy so‘rovlarda ishtirok etganlarning 90 foizdan ko‘prog‘i “Men mahallamning bir qismiman”, degani ham bu fikrni tasdiqlab turibdi.

Islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirish bu – yangi, ilg‘or mex-

anizmlarni joriy etish, ijtimoiy pedagogik maqsadni natijaga aylantirish, degani. Bu esa barcha sohalarda islohotlar Prezidentimiz ta'kidlagan "Har bir sohaning ilmi bor. Ilmga asoslanmagan sohaning kelajagi yo'q", degan ilmiy prinsip asosida tashkil qilinayotganini ko'rsatadi. Murojaatnomada xalqimizning turmushi, kayfiyati, dinamikasi aniq fakt va raqamlarda namoyon bo'ldi. Millionlab aholining ish bilan ta'minlanishi, kambag'allik darajasining keskin pasayishi, minglab mahallalarning "kambag'allikdan xoli" hududga aylanishi o'z-o'zidan bo'ladigan ishmi? Yo'q, albatta. Bu natijalarda Davlat siyosatining markazida inson turgani yaqqol namoyon bo'ldi.

Bu natijalarni faqat raqamlar emas, har birimizning ko'zlarimiz tasdiqlab turibdi. Keling, bir ijtimoiy pedagogik blits-so'rov o'tkazamiz. Mana bu 10 ta oddiy, jaydari, sodda savolga "ha" yoki "yo'q" javoblaridan birini bering: 1. Shaharlarimiz jamoli o'zgaryaptimi?. Qishloqlarimiz shaharga o'xshab borayaptimi? 2. Yangi korxonalar, savdo va servis maskanlari ochilyaptimi? 3. Maktab, bog'cha, shifoxonalar qurilayaptimi? 4. Ko'chalar asfaltlashib, xizmatlar raqamlashib, aqlimizni shoshirayaptimi? 5. Avtomashinalarimiz ko'pligidan yo'llarga sig'may borayaptimi? 6. Xalqimiz qishloqlardan guruh-guruh bo'lib, umra ziyoratlariga borib kelishayaptimi? 7. O'zbekistonliklarning ta'tilni chet ellarda o'tkazishi ommalashib ketayaptimi? Yangi 2026 yil arafasida turistik operatorlarimiz odamlarning murojaatlariga "Paketlarni odamlar ancha oldin sotib olishgan. Uzr-a", degan javobni berishdimi? 8. Isrofgarchilikka qarshi maromiylik uchun boshlagan milliy ma'rifiy harakatimizga sabab ham aslida odamlarimizga topgan boyligini isrof qilmaslikni o'rgatish uchun emasmi? 9. Bularning hammasi odamlarimizda turmushidan orttirgan pul, mablag'i ko'payib borayotganidan emasmi? 10. Buni ko'rish uchun rasmiy hisobot shart emas, atrofga xolis qarashning o'zi yetarli emasmi? Albatta, hisob: "10 [ha]: 00 [yo'q]" bo'ldi. Bu savollarni davom ettirish mumkin. Ularga bergan har bir xolis javobimiz bizdagi rozilikni, shukronani oshirib borayapti. Bu haqiqatning boisi – biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o'rganganimizdan emasmi?!

Murojaatnomadagi "Biz o'zgarishlarni kutib yashamaymiz, aksincha, ularni o'zimiz, o'z aql-zakovatimiz va mas'uliyatli mehnatimiz bilan yaratamiz", degan satrlarni o'qiganda bir azaliy haqiqat – xalqimiz boshqalarga ergashib yurmagani, balki, aksincha, ergashtirgani esga tushadi. Beixtiyor akademik shoirimiz G'afur G'ulomning "Taqdirin qo'l bilan yaratar odam, G'oyibdan kelajak baxt bir afsona", degan g'ayratli satrlari esga tushadi. Va albatta, har birimiz ishga borayotganda, yengil avtomobilimiz, elektr avtobuslar oynasidan har kuni ko'rib-kuzatayotgan o'zgarishlarni eslaymiz.

Murojaatnomada ta’lim va yoshlar tarbiyasi masalasiga alohida e’tibor qaratildi. O‘quvchi va talabalarimizning xalqaro olimpiadalarda qo‘lga kiritayotgan yutuqlari millat kelajagi bilimli, raqobatbardosh avlod qo‘lida ekanini ko‘rsatdi.

Bunga qanday omillar sabab? Avvalo, mamlakatimizda ta’lim tizimiga jahonning eng zo‘r texnologiyalari modifikatsiya qilinayotgani, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” Konsepsiyasi amalga oshirilayotgani va ko‘plab innovatsiyalar bois bo‘lmoqda. Kuchli ma’naviyatli avlodni yetishtirishning 0 yoshdan 30 yoshgacha individual va differensial texnologiyasi amalga oshirilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, tarbiya va ta’limda ham Prezidentimizning “biz o‘zgarishlarni kutib yashamaymiz, aksincha, ularni o‘zimiz, o‘z aql-zakovatimiz va mas’uliyatli mehnatimiz bilan yaratamiz”, degan g‘oyasi amalga oshmoqda.

Prezidentimizning Murojaatnomasi – professor o‘qituvchilar, pedagog olimlar, ota-onalar va ma’rifat, ta’lim va tarbiya xodimlari uchun ham yangi ijtimoiy pedagogik konsepsiya, model, dasturlar, ilmiy qo‘llanmalarning metodologik manbasidir. Murojaatnomadagi “Albatta, bu ayni murakkab zamondoshlarimizni turli sinovlarga chidamli. vatanparvar insonlar etib tarbiyalash” haqidagi dasturiy fikr ma’naviyat va tarbiya nazariyasi, metodikasi uchun modernizatsiya manbaidir. Ya’ni, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar nazariyasi “bugungi murakkab zamon” talablariga mos bo‘lishi kerak.

Buning uchun nima qilish kerakligi Murojaatnomada aniq-tiniq qilib berildi: “yoshlarimizni turli sinovlarga chidamli, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash” kerak. Nima uchun? Chunki zamon murakkab. Yoshlarimiz murakkab savol, vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatilmasa, aldanadi, adashadi. O‘zlarini ham ularni asrab-avaylab o‘stirgan ota-onalarini ham g‘am-g‘ussaga botirib qo‘yishlari mumkin. Afsuski, bunday misollar hayotimizda uchradi.

“Turli sinovlarga chidamli yoshlar" – bu hayotda uchraydigan giyohvandlik, diniy radikalizm, nigilizm, bevatanlik g‘oyalari ta’sirida sinmaydigan, balki sindiradigan yoshlar. Bugunning Alpomishday har kuni o‘sib, kuchayib borayotgan Z va Alfa avlodlari. “Chidamli”, degan sifat hammada ham bo‘lavermaydi. Chunki bu sifat tug‘ma emas – o‘rgatish-o‘rganish natijasi. Agar bu sifat, fazilat, kompetensiya ataylab o‘rgatilmasa, o‘g‘il-qizlarimiz o‘rganmasa, ular mo‘rt, bo‘sh, qalqiydigan bo‘lishlari mumkin. Prezidentimiz Murojaatnomasi ana shundan bizni ogohlantirmoqda.

Biz tarbiyachilar, pedagog, o‘qituvchilar, ma’naviyat xodimlari Murojaatnomani gavhardek bezab turgan “Biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o‘rgandik”, degan fikrdan kuch olib, tarbiyaviy

natijani oshirish uchun ilmiy-metodik innovatsiyalarga kirishishimiz kerak. Ana shunda maktabgacha, maktab va oliy ta'lim tizimida uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoni "bugungi murakkab zamonda yoshlarimizni turli sinovlarga chidamli, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash" bilan takomillashadi. Ana shunda yoshlarimiz xulqida mustahkam mafkuraviy immunitetni ko'ramiz. Uning qay darajada ekanligini va bu kompetensiyani "bugungi murakkab zamon" talablaridan kelib chiqib, o'lchay olamiz. Bu yoshlarimiz oldiga to'siq, labirintlar chiqayotgan, xalqimizni yanada birlashtirish va jipslashtirish talab qilinayotgan bugungi kun talabidir.

"2030-yilda erishiladigan marraga 2026-yilning o'zida bemalol erisha olamiz". Mana bu – proaktiv siyosat. Bugungi O'zbekiston qudrati, siyosati va xalqi salohiyatining mezoni. Aniq, xalqaro hisob-kitoblarga, natijalarga tayangan qat'iy ishonchning shijoatli ifodasi. Bu ishonchni bir vaqtlar AQShning otalaridan biri Avraam Linkoln "Kelajakni bashorat qilishning eng yaxshi yo'li – uni yaratishdir", deb orzu qilgan edi.

Zero, bu so'zlarda ulkan proaktiv ijtimoiy pedagogik omillar mujassam:

Birinchidan – vaqtdan o'zish proaktiv shijoatini aholi, yoshlarga singdirish. Chunki biz kelajakni kutmayapmiz. Biz kelajakka boryapmiz. Uni O'zbekistonga olib kelyapmiz. Keltiryapmiz. Bu bilan biz "bugun" bilan "kelajak", degan tushunchalarni yaqinlashtiryapmiz. Ya'ni, ilgari "kelajak", deganda biz uzoqdan, yuqoridan ko'rinib turadigan, bizga bog'liq bo'lmagan, qachondir bizga o'zi yetib keladigan ma'vo, ob'ekt, manzilni tushungan bo'lsak, bugun kelajakni "biz borajak manzil", deb tushundik. Demak, unga yetib borish vaqti bizga, xalqimizning safarbarligiga bog'liq. Ana shunda otni qamchilab, 3 yillik yo'lni 1 yilda bosib o'tish mumkin. Shuning uchun 2030-yilda yetmoqchi bo'lgan darajaga 2026-yilda yetib borishimizga ishonchimiz komil.

Ikkinchidan – islohot natijalari berayotgan ishonch. Bu fikrning poydevorida yalpi ichki mahsulotning 145 mlrd. dollardan oshgani, infratuzilma, energetika, suv ta'minotidagi tarixiy sakrashlar, kambag'allikning keskin qisqarishi, yoshlar, ta'lim va ilm-fandagi yutuqlardagi aniq natijalar turibdi. Ijtimoiy pedagogika bu natijalarni tarbiyaviy resurslarga aylantirishi kerak.

Uchinchidan – xalqimizga cheksiz muhabbat, uning salohiyatiga berilgan yuksak baho bor. Bu iborada xalqimizning Prezidentimizga, Prezidentimizning xalqimizga mustahkam ishonchi mujassam. Ana shuning uchun bugungi O'zbekiston bu – kutuvchi davlat emas, yaratuvchi, proaktiv davlat. Biz o'zgarishlarni tashqaridan emas, o'z aql-zakovatimiz, mehnatimiz va birdamligimizdan izlayapmiz, topyapmiz.

Xullas, Prezidentimiz tomonidan aytilgan "2030-yilda erishiladigan

marraga 2026-yilning o‘zida bemalol erisha olamiz”, degan fikr o‘zidan kuchli ma’naviy energiya taratmoqda. Demak, xalqimiz birdam, maqsadi aniq ekan, vaqt ham bizga yeta olmaydi. Ijtimoiy pedagogika mana shu ishonch va tuyg‘uni aholi, yoshlar qalbiga singdirishi kerak.

“2030-yilgacha barcha tumanlardagi mahallalarga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kiramiz”. Murojaatda aytilgan bu fikr bizni eng orziqib, intiqib kutayotgan manzarani taqdim qildi. Bu iborada Yangi O‘zbekiston qiyofasi mamlakatning har bir ko‘cha, har bir xonadonida, har bir inson hayotida ko‘rinishi kerak, degan qat’iy iroda mujassam.

Buning uchun taraqqiyotni markazdan mahallaga tushirish, islohotlar mahallaga, odamlar oldiga borishi kerak, degan hikmat bor. Chunki Yangi O‘zbekiston qiyofasi faqat poytaxtda emas, balki eng chekka mahallalarda ham yaqqol ko‘rinishi lozim. Bu – taraqqiyotni hududlarga teng taqsimlash tamoyilining tantanasi bo‘ladi. Mana shu xususiyatlar aholi, yoshlarga tushuntirilishi zarur.

Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi namoyon bo‘lishida ijtimoiy pedagogikaning roli katta. Bu mehr-oqibatli, adolatli munosabat, inson qadri ustuvor bo‘lgan muhit, ishli, daromadli odamlar, ma’naviy va jismoniy sog‘lom odamlar, kattaga hurmat, kichikka izzat demakdir. Demak, bu qiyofa o‘y va so‘zlarimizda, xulq va munosabatlarimizda ham bir xil namoyon bo‘lishi kerak. Zero Murojaatdagi "barcha tumanlar, barcha mahallalar”, degan ibora “rivojlangan” va “ortda qolgan” degan farqlarni yo‘q qilishga qaratilgan.

Prezidentimiz Murojaatnomasi hozirgi va kelajak avlodlarimiz uchun baxtli hayotga olib boradigan yo‘l xaritasining ulug‘ marralarini belgilab berdi. Endi har birimiz o‘zimizdan so‘raylik: bu jarayonda men kimman? Tomoshabinmi yo ishtirokchi? Ishtirokchiman, deb yeng shimaraylik. Ana shunda bir yoqadan qo‘l, bir yengdan qo‘l chiqarib, yurtimizni mehr-oqibat, hamjihat, farovonlik, baxt maskaniga aylantiramiz. Ana shunda ijtimoiy pedagogika o‘z oldiga qo‘yilgan buyuk missiyani bajargan bo‘ladi.